

Xolmatov Abdulbosid Abdurashid o‘g‘li

Qo‘qon temir yo‘l texnikumi tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada XX asr 50-60-yillarida O‘zbekiston xalq ta’limi tizimida amalga oshirilgan islohotlarni yoritishga harakat qilindi.*

Kalit so‘zlar: *məktəb, o‘qıvchi, o‘qituvchi, yetti yillik mətburiy ta’lim, rus tili və adabiyyoti, kasb-hunar.*

Аннотация: В статье предпринята попытка осветить реформы, проведенные в системе народного образования Узбекистана в 50-60-е годы XX века.

Ключевые слова: *школа, ученик, учитель, семилетнее обязательное образование, русский язык и литература, профессия.*

Annotation: The article tried to highlight the reforms carried out in the public education system of Uzbekistan in the 50s and 60s of the 20th century.

Key words: *school, student, teacher, seven-year compulsory education, Russian language and literature, profession.*

Ma’lumki, ta’lim inson shaxsini har tomonlama rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sobiq sovet davrida ham xalq maorifi sovet madaniy qurilish siyosatining eng ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etilgan. Shuning uchun ham, O‘zbekiston SSRda ikknchi jahon urushidan keyingi yillarda asosiy e’tibor xalq ta’limini urushdan oldingi darajaga olib chiqish, bolalarning umumiy ta’lim olishini ta’minlash, ta’lim sifatini oshirishga qaratildi.

Urushdan keyingi yillarda vayron bo‘lgan xalq xo‘jaligini tiklash bilan birga umumta’lim maktablariga ham e’tibor qaratildi. 1950-yilda respublikamizda 4976 məktəb faoliyat ko‘rsatib, ularda 1347,2 ming o‘qıvchi ta’lim ola boshladı⁶.

O‘qituvchi xodimlar masalasi urushdan keyingi yillardagi eng jiddiy muammolardan biri edi. Chunki malakali o‘qituvchilar, asosan, urushga yuborilgan, ularning ko‘philigi frontda halok bo‘lgandi. Tuman xalq maorifi bo‘limlari mudirlari, məktəb direktorları va ta’lim bo‘yicha direktor muovinlarining 60 foizidan ko‘progi tegishli ma’lumotga ega emasdi. 1950-yilda O‘zbekistondagi 7125 ta məktəb o‘qituvchilarga muhtojlik sezardi⁷.

1950-1951-yildan e’tiboran boshlang‘ich sinflardagi o‘quvchilar soni urushdan ilgarigi yillardagiga qaraganda kamayib qolgan edi, chunki urush yillarida tug‘ilish ozaygandi. Urushdan keyingi yillarda O‘zbekistonda yetti yillik umumiy mətburiy ta’limni amalga oshirishdagi eng katta kamchilik o‘quvchilami məktəbni tashlab ketib

⁶ Qo‘ldosh Ergashov. O‘zbekistonda xalq ta’limining rivojlanish tarixi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1998. – B. 25.

⁷ O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: “Sharq”, 2000. – B. 571.

qolishlari edi⁸. XX asr 50-yillarida o‘quvchilar tomonidan maktablarning tashlab ketilishiga bir qancha omillar sabab bo‘lgan edi. Birinchidan, maktablar aholi punktlaridan ancha uzoqda joylashgan. O‘quvchilarning maktabga qatnashi uchun transport muammosi hal etilmagan. Ayrim maktablarda o‘quvchilar 10-12 km uzoqlikdan qatnagan. Ikkinchidan, o‘sha davr maktablari malakali o‘qituvchilar, sinf xonalari, o‘quv anjomlari bilan talab darajasida ta’minlab berilmagan. Uchinchidan, maktablar uchun o‘quv ko‘rgazmali qurollarni tayyorlash va bosib chiqarish ishlari qoniqarsiz ahvolda bo‘lgan, o‘rta maktablar uchun tuzilgan darsliklarda va dasturlarda jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan. To‘rtinchidan, maktablarda malakali mutaxassislar yetishmagan⁹.

Xalq maorifi organlarining o‘quvchilar sonini saqlab qolish va maktabni tashlab ketishni kamaytirish borasida katta ishlar olib borganiga qaramay, baribir, ayniqsa, V-X sinflar bo‘yicha maktabni tashlab ketuvchilar hamon ko‘p edi. Masalan: 1958-59 o‘quv yilida I-IV sinflar bo‘yicha 757038 o‘quvchidan 19217 tasi, V-VII sinflar bo‘yicha 349236 o‘quvchidan 17900 tasi (5,1%), VIII-X sinf bo‘yicha 197245 o‘quvchidan 21453 tasi (10,9%) maktabni tashlab ketgan edi¹⁰.

O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining 1953-yil 20-mayda bo‘lib o‘tgan sessiyasida “O‘zbekiston SSR xalq maorifining ahvoli va uni yaxshilash tadbirlari to‘g‘risida” qabul qilingan qaroridan keyin maorif sohasida birmuncha o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Biroq xalq ta’limi tizimida va maktablardagi jiddiy nuqsonlar hali mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish kun tartibida edi. Jumladan, respublikaning chekka tumanlarida maorif organlari yetarli ishlamas, maktab yoshidagi bolalarni o‘qishga jalb etish oqsardi. O‘zbekiston bo‘yicha 1952-1953-o‘quv yilida boshlang‘ich sinflarga qabul qilish rejasi 30500 nafar, 5-7-sinflar bo‘yicha 37500 nafar o‘quvchiga bajarilmagan¹¹.

1955-yilda boshlang‘ich va o‘rta maktablarda 400 ming nafarga yaqin qizlar tahsil olgan bo‘lib, respublika bo‘yicha mavjud maktablarda 7,5 ming nafarga yaqin mahalliy millat ayollaridan o‘qituvchilar faoliyat yuritgan¹².

1956-1957-o‘quv yilida respublika xalq ta’limi tizimiga qator yangiliklar kiritildi. Jumladan, respublikada dastlabki 6 ta internat-maktablar tashkil qilindi, ularning 2 tasi Toshkent shahrida, qolgan 4 tasi Yangiyo‘l, Farg‘ona, Qo‘qon va Xiva shaharlarida ochildi. Shu yildan boshlab Toshkent shahrining bir necha maktablarida sharq tillari: arab, hind, xitoy tillari o‘qitila boshlandi va bu tillar 2,3,4-sinflarda haftasiga besh soatdan kiritildi.

⁸ Ta’lim tarixi: o‘quv qo‘llanma / Ma’suda Abdullayeva (va boshqalar). – Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2013. – B. 98.

⁹ Shohjahon Rashidov. O‘zbekiston SSR boshqaruv tarixi (XX asr 50-yillari). – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2023. – B. 63-64.

¹⁰ Ta’lim tarixi: o‘quv qo‘llanma / Ma’suda Abdullayeva (va boshqalar). – Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2013. – B. 98.

¹¹ O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Ikkita kitob. Ikkinci kitob. 1939-1991-yillar. Mas’ul muharrirlar: R.Abdullayev, M.Rahimov, Q.Rajabov. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – B. 224.

¹² Nilufar Jo‘rayeva. O‘zbekistonda xotin-qizlarga munosabat (XX asrning 20-80 yillari misolida): o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. – B. 228.

O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining 1957-yil 1-oktyabrdagi qonunning qabul qilinishi maktablarda ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan dastlabki qadam bo‘ldi. Yangi qonunga ko‘ra umumta’lim maktabi hamma uchun majburiy bo‘lib qoldi. Biroq, bu bilan respublika maktablarida mavjud kamchiliklar barham topmadi. Aksincha, maktab hayot talablariga fan-texnika taraqqiyoti jihatidan javob bermas edi¹³.

50-yillarning ikkinchi yarmiga kelib, xalq xo‘jaligining rivojlanishi rivojlanishi maktablarni bitirib chiqayotganlarning tabiiy-ilmiy va politexnik bilimlarni yanada chuqurroq egallashlari zarurligini taqozo eta boshladi. Bu vazifani hal etish uchun 1958-yilga kelib, sakkiz yillik majburiy ta’lim tizimini zudlik bilan joriy etish yo‘lga qo‘yildi¹⁴.

1958-yil dekabrdagi SSSR Oliy Soveti “SSSRdagi maktabning turmush bilan aloqasini mustahkamlash va xalq maorifi tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” qonun qabul qildi. Qonunda o‘qitishni turmush bilan bog‘lab olib borish, yoshlarni aqliy, ma’naviy, jismoniy jihatdan yetuk qilib shakllantirish, ularga umumiyligi politexnik bilim berish vazifalari qo‘yildi¹⁵.

1959-yil martda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti “Maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlash va respublikada xalq ta’limi tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” yangi qonun qabul qildi. Ammo, sovet mustabid tuzumiga xos bo‘lgan boshlangan ishni oxiriga yetkazmaslik odati bu gal ham muammoni hal qilish yo‘lida to‘g‘anoq bo‘lib xizmat qildi, oqibatda xalq ta’limida ahvol o‘zgarmadi¹⁶.

1958-yilgi Qonunga muvofiq o‘rta umumiy ta’lim maktablari (yuqori sinflar) ishlab chiqarish yo‘nalishidagi 11 yillik o‘rta umumiy ta’lim maktablariga aylantirildi. So‘nggi uch yil mobaynida yuqori sinf o‘quvchilari o‘rta ma’lumotli bo‘lishlari va biron-bir kasb-hunarni egallashlari lozim edi.

1958-yilda maktab haqidagi qonunning qabul qilinishi va uning amalga oshirilishi tufayli ayrim natijalarga ham erishildi. Masalan, respublikamizda 1958-yildan 1961-yilgacha 991 ta ishlab chiqarish ta’limi yo‘lga qo‘yilgan maktablar tashkil etildi.

Lekin 1958-yilgi qonunning amalga oshirilishi jarayonida bir qator xatoliklarga yo‘l qo‘yilganligi ham ayon bo‘lib qoldi. Shu sababli 1964-yil 10-avgustda qabul qilingan “Ishlab chiqarish ta’limi beradigan o‘rta umumiy ta’lim, mehnat va politexnika maktablarida o‘qitish muddatini uzaytirish haqida”gi qarorga muvofiq kunduzgi o‘rta umumiy ta’lim maktablaridagi majburiy hunar ta’limi bekor qilindi va 10 yillik o‘quv tizimi joriy etildi. Yo‘l qo‘yilgan biryoqlamalik va o‘zboshimchalik hollari qoralandi, ta’lim muassasalariga siyosiy rahbarlik yana ham kuchaytirildi¹⁷.

Rasmiy hokimiyat proletar baynalmilalligini amalda kuchaytirish maqsadida

¹³ O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Ikkita kitob. Ikkinci kitob. 1939-1991-yillar. Mas’ul muharrirlar: R.Abdullayev, M.Rahimov, Q.Rajabov. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – B. 224.

¹⁴ Qo‘ldosh Ergashov. O‘zbekiston ta’limi: muammolar va islohotlar. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2014. – B. 80.

¹⁵ Usmonov Q., Sodiqov M. O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). – Toshkent: “Sharq”, 2010. – B. 223.

¹⁶ O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Ikkita kitob. Ikkinci kitob. 1939-1991-yillar. Mas’ul muharrirlar: R.Abdullayev, M.Rahimov, Q.Rajabov. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – B. 224.

¹⁷ Qo‘ldosh Ergashov. O‘zbekiston ta’limi: muammolar va islohotlar. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2014. – B. 81.

maktablarda rus tili va adabiyotini kengroq o‘qitishga urg‘u berdi. Natijada 60-yillari O‘zbekiston tarixi, o‘zbek tili va adabiyoti, chet tili, musiqa va ashula darslari hajmi keskin qisqardi va ular o‘quv rejasida belgilanganidan haftasiga 16,5 soatga kamayib ketdi. Ular o‘rniga esa rus tili va adabiyoti predmeti o‘qitildi. Masalan, o‘qituvchilar “XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida o‘zbek adabiy-badiiy muhiti”, “Milliy madaniy jarayonlar” to‘g‘risidagi mavzularda dars o‘tishi lozim bo‘lgan soatlarda rus madaniyatining “progressiv” ahamiyatini ko‘rsatib berishga majbur bo‘ldilar. Oqibatda, boy va ko‘hna o‘zbek xalqi tarixini o‘rganishga 52 soat ajratilgani holda boshlang‘ich maktablarda rus tili va adabiyoti fanlari uchun 1600 soat ajratilgan¹⁸.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar doimo hukumat e’tiborida bo‘lgan va bu borada turli qarorlar qabul qilingan. Masalan, 1966-yilda KP MK va SSSR MSning umumiy o‘rta ta’lim maktablari faoliyatini yaxshilashga bag‘ishlangan qarorida ta’lim tizimini takomillashtirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash masalalari ham aks etgan. Uning ijrosi sifatida respublika shaharlarida zamonaviy maktab binolari qurilib, ishga tushirilgan¹⁹.

1966-yil noyabr oyida qabul qilingan “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ishini yanada yaxshilash tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror asosida o‘quv rejalarini jamiyat sharoitlari va talablarini hisobga olgan holda takomillashtirish, tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, maktabga siyosiy rahbarlik darajasini yanada oshirish vazifalari qo‘yildi. Qarorga muvofiq o‘rta maktab negizidagi yalpi hunar ta’limi bekor qilindi, kunduzgi va kechki maktablar o‘rtasida vujudga kelgan nomuvofiqliklar bartaraf etildi, umumiy ta’limni joriy etishni tezlatish, umumiy ta’lim mohiyatini qayta ko‘rib chiqish borasida faol ish boshlab yuborish zarur deb topildi. Qarorda umumiy ta’lim maktabi zimmasiga yoshlarga fan asoslarini chuqur o‘rgatish, ularda yuksak ongni shakllantirish, ularga politexnik bilim asosida dastlabki mehnat tayyorgarligini berish, mehnat ta’limi va kasb tanlash, malaka hosil etish ishini yaxshilash vazifalari yuklatildi. Maktablarni yanada rivojlantirish talablaridan kelib chiqib, asosiy vazifa umumiy o‘rta ta’limga o‘tishdan iborat deb belgilandi. Sobiq Ittifoqning barcha respublikalarida, shu jumladan, O‘zbekistonda ham 60-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab majburiy o‘rta ta’limga o‘tish harakati avj oldi²⁰.

Xulosa qilib aytganda, XX asr 50-60-yillarida O‘zbekiston SSR xalq ta’limi tizimida bir qator mummolar mavjud edi. Ushbu mummolarni bartaraf etish uchun hukumat tomonidan umumta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida umumta’lim maktablarining rivojlanishida muayyan siljishlar bo‘ldi, lekin ushbu islohotlar xalq maorifidagi barcha muammolarga to‘liq yechim bo‘la olmadi.

¹⁸ Komiljon Hashimov, Sanobar Nishonova. Pedagogika tarixi: Darslik. II qism. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. – B. 242.

¹⁹ Anora Tog‘ayeva. O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari va shahar madaniyati muammolari (1950-1990-yillar). – Toshkent: “Yangi nashr”, 2017. – B. 161.

²⁰ Qo‘ldosh Ergashov. O‘zbekistonda xalq ta’limining rivojlanish tarixi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1998. – B. 27-28.

1. Anora Tog‘ayeva. O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari va shahar madaniyati muammolari (1950-1990-yillar). – Toshkent: “Yangi nashr”, 2017.
2. Komiljon Hashimov, Sanobar Nishonova. Pedagogika tarixi: Darslik. II qism. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
3. Nilufar Jo‘rayeva. O‘zbekistonda xotin-qizlarga munosabat (XX asrning 20-80 yillari misolida): o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013.
4. Qo‘ldosh Ergashov. O‘zbekistonda xalq ta’limining rivojlanish tarixi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1998.
5. Qo‘ldosh Ergashov. O‘zbekiston ta’limi: muammolar va islohotlar. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2014.
6. Ta’lim tarixi: o‘quv qo‘llanma / Ma’suda Abdullayeva (va boshqalar). – Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2013.
7. Usmonov Q., Sodiqov M. O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). – Toshkent: “Sharq”, 2010.
8. Shohjahon Rashidov. O‘zbekiston SSR boshqaruvi tarixi (XX asr 50-yillari). – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2023.
9. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: “Sharq”, 2000.
10. O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Ikkita kitob. Ikkinci kitob. 1939-1991-yillar. Mas’ul muharrirlar: R.Abdullayev, M.Rahimov, Q.Rajabov. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019.